| JISMONIY TARBIYANING INSON SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHDAGI ROLI .....  | 614 |
| <b>Abdilaxatov Zafar Abdigapirovich</b>  |     |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ<br>СТРУКТУРЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ТАМОЖНИ .....   | 621 |
| <b>Ли Ирина Валентиновна</b>   |     |
| JAHON IQTISODIYOTIDA O'ZBEKISTONNI TUTGAN O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI .....   | 627 |
| <b>Boboqulov Sanjar Bahromqulovich</b>   |     |
| OBODONLASHTIRISH XIZMATLARI IJTIMOIIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH .....  | 633 |
| <b>Hayitov Jamshid Xolvoyevich</b><br><b>Ibragimova Gulhayo Nuriddin qizi</b>  |     |
| O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI TAHLILI .....  | 638 |
| <b>Hamroyeva Sabina Ismoil qizi</b>  |     |
| EXPLORATION OF TOURISM FLOW GENERATING IN SAMARKAND<br>UNDER THE BACKGROUND OF DIGITAL ECONOMY .....   | 644 |
| <b>Jie YANG</b>  |     |
| ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ .....  | 651 |
| <b>Усманова Диляфруз Каршиевна</b>   |     |
| YASHIL ISTE'MOL XULQ-ATVORINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA<br>STRATEGIK ISTIQBOLLARI .....   | 656 |
| <b>Ishmuratov Baxodir Xusanovich</b>   |     |
| O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA VA FOIZ SIYOSATINING BANK KREDITLARIGA TA'SIRI .....   | 661 |
| <b>Ibragimova Saule Orinbaevna</b>   |     |
| IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA<br>IJTIMOIIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARNING ROLI: STATISTIK YONDASHUV .....   | 665 |
| <b>Qurbonboyev Abdulla Mansur o'g'li</b>   |     |



# IJTIMOY HIMOYA TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA IJTIMOY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARNING ROLI: STATISTIK YONDASHUV

**Qurbonboyev Abdulla Mansur o'g'li**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
"Iqtisodiy statistika" kafedrasida assistenti  
Email: a.qurbonboyev@tsue.uz  
ORCID: 0009-0008-7660-4456

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishida ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini baholashning nazariy va amaliy jihatlari statistik-tahliliy yondashuv asosida o'rganilgan. Aholi daromadlarining barqaror o'sishi kambag'allik darajasining pasayishidagi roli hamda ijtimoiy transfertlar va bandlik darajasi kambag'allikni kamaytirishda muhim, biroq nisbatan bilvosita ta'sirga ega omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Maqolada statistik tahlil, dinamika qatorlarini o'rganish, taqqoslash va strukturaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, kambag'allik, aholi daromadlari, bandlik darajasi, ijtimoiy transfertlar, statistik tahlil, dinamik tahlil, korrelyatsiya, ijtimoiy siyosat.

**Аннотация:** В данном исследовании теоретические и практические аспекты оценки эффективности системы социальной защиты рассмотрены на основе статистико-аналитического подхода. Показано, что устойчивый рост доходов населения играет ключевую роль в снижении уровня бедности, тогда как социальные трансферты и уровень занятости выступают важными, но относительно косвенными факторами, влияющими на сокращение бедности.

В статье использованы методы статистического анализа, изучения динамических рядов, сравнительного и структурного анализа. Полученные результаты служат основой для разработки научно обоснованных выводов, направленных на совершенствование системы социальной защиты, повышение эффективности использования ресурсов и сокращение бедности.

**Ключевые слова:** социальная защита, бедность, доходы населения, уровень занятости, социальные трансферты, статистический анализ, динамический анализ, корреляция, социальная политика.

**Abstract:** This study examines the theoretical and practical aspects of evaluating the effectiveness of the social protection system based on a statistical-analytical approach. The findings indicate that the sustainable growth of household incomes plays a key role in reducing poverty levels, while social transfers and employment rates emerge as important, yet relatively indirect, factors influencing poverty reduction.

The article employs methods of statistical analysis, time series analysis, comparative analysis, and structural analysis. The results obtained provide a basis for developing scientifically grounded conclusions aimed at improving the social protection system, enhancing the efficiency of resource utilization, and reducing poverty.

**Keywords:** social protection, poverty, household income, employment rate, social transfers, statistical analysis, time series analysis, correlation, social policy.

## KIRISH

Hozirgi iqtisodiy rivojlanish sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi davlat ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu tizim aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allik darajasini kamaytirish, daromadlar tengsizligini yumshatish hamda umumiy turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, global iqtisodiy beqarorlik, pandemiya kabi tashqi omillar



ta'siri kuchaygan sharoitda ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish, uning qamrovini kengaytirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq ushbu tizim samaradorligini baholashda qo'llanilayotgan yondashuvlar ko'pincha tavsifiy xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni yetarli darajada aks ettira olmaydi. Shu sababli ijtimoiy himoya tizimining natijadorligini baholashda statistik ma'lumotlarga asoslangan kompleks tahliliy yondashuvlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi.

Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy himoya tizimining turli jihatlarini keng o'rganilgan bo'lsa-da, uning samaradorligini real statistik ma'lumotlar asosida dinamik va tizimli tahlil qilish masalalari yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Xususan, ijtimoiy transfertlar, bandlik darajasi va aholi daromadlari kabi omillarning kambag'allik darajasi bilan o'zaro bog'liqligini vaqt kesimida kompleks tahlil qilish dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini statistik tahlil asosida baholash hamda asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillarning kambag'allik darajasiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: ijtimoiy himoya tizimining nazariy asoslarini tahlil qilish, asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamikasini o'rganish, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda kambag'allik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida ijtimoiy himoya tizimi jarayonlari, predmeti sifatida esa uning samaradorligini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar va ularning o'zaro bog'liqligi tanlangan. Tadqiqotda dinamik tahlil, taqqoslash usuli, korrelyatsion tahlil hamda strukturaviy tahlil usullaridan foydalanildi.

Mazkur tadqiqot natijalari ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy himoya tizimi va uning samaradorligini baholash masalalari iqtisodiyot va ijtimoiy siyosat yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan.

Xususan, ijtimoiy himoya tizimining aholi farovonligiga ta'siri, kambag'allikni qisqartirishdagi roli hamda daromadlar tengsizligini yumshatishdagi ahamiyati ko'plab xalqaro tashkilotlar va olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimlari, xususan, to'g'ridan-to'g'ri pul o'tkazmalari (cash transfer) va ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlari (safety nets) kambag'allik darajasini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ayrim mamlakatlar tajribasi ushbu dasturlar kambag'allik darajasini taxminan 7–10 foizgacha qisqartirishga xizmat qilganini ko'rsatadi [1]. Xalqaro mehnat tashkiloti hisobotlarida esa ijtimoiy himoya dasturlari aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlashda muhim vosita ekanligi ta'kidlanadi.


Ilmiy izlanishlarda ijtimoiy himoya samaradorligini baholashda turli metodologik yondashuvlar qo'llanilgan. Masalan, Martin Ravallion tadqiqotlarida kambag'allikni baholash va ijtimoiy dasturlar samaradorligini aniqlashda statistik va ekonometrik usullarning muhimligi asoslab berilgan [2].

François Bourguignon ishlarida esa daromadlar tengsizligi va ijtimoiy siyosat o'rtasidagi bog'liqlik kompleks iqtisodiy modellarda tahlil qilingan [3].

Ko'p omilli regressiya modellari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Jeffrey Wooldridge o'zining ekonometrika bo'yicha ishlanmalarida regressiya modellari orqali sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash mumkinligini ta'kidlaydi [4].

So'nggi yillarda ijtimoiy himoya tizimini baholashda integrallashgan indikatorlar va kompozit indekslardan foydalanish tendensiyasi kuchaymoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan ishlab chiqilgan inson rivojlanishi indeksi (HDI) ijtimoiy rivojlanishni kompleks baholashga xizmat qiladi [5].

Mamlakatimizda kuniga 3 dollar (2021 PPP) mezoniga asoslangan kambag'allik darajasi 2025-yil holatiga ko'ra 2,3 foizni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich so'nggi yillarda kambag'allikning sezilarli darajada qisqarganini va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning yaxshilanganini anglatadi (1-rasm) [6].



1-rasm. Kuniga 3 dollardan (PPP 2021 — xarid qobiliyati pariteti bo'yicha) kam daromad oladigan aholining ulushi % da<sup>1</sup>

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida ijtimoiy ko'rsatkichlar dinamikasi tahlil qilinmoqda, biroq ularning o'zaro bog'liqligi va kompleks modellashtirilishi hali yetarli darajada chuqur o'rganilmagan [7].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini baholashda statistik tahlil va empirik yondashuvlardan foydalanish ilmiy jihatdan asoslangan va dolzarb yo'nalish hisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini vaqt kesimida kompleks va tizimli tahlil qilish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Xususan, ijtimoiy transfertlar, bandlik darajasi va aholi daromadlari kabi omillarning kambag'allik darajasiga ta'sirini dinamik va integrallashgan yondashuv asosida baholash zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni real statistik ma'lumotlar asosida kompleks tahlil qilish orqali to'ldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini baholashda kompleks statistik tahlil yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini dinamik tahlili, taqqoslash usuli, korrelyatsion tahlil hamda strukturaviy tahlil tashkil etadi. Dinamik tahlil yordamida tanlangan ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarish tendensiyalari o'rganildi. Ushbu yondashuv ijtimoiy himoya tizimi ko'rsatkichlarining evolyutsiyasini va ularning kambag'allik darajasi bilan bog'liqligini aniqlash imkonini berdi. Xususan, kambag'allik darajasi, daromadlar va ijtimoiy transfertlar ulushining o'zgarish sur'atlari solishtirildi. Korrelyatsion tahlil yordamida kambag'allik darajasi va tanlangan ijtimoiy-iqtisodiy omillar o'rtasidagi bog'liqlikning yo'nalishi va kuchi aniqlandi. Ushbu tahlil omillar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni miqdoriy jihatdan baholashga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlatning ijtimoiy himoya tizimi samarasini bevosita kambag'allik darajasining pasayishi bilan qiyoslash mumkin. Ijtimoiy himoya tizimi nafaqat aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi "avtomatik stabilizator" vazifasini ham o'taydi.

Ijtimoiy himoya tizimining sifati ko'p hollarda mamlakatdagi umumiy kambag'allik darajasi va Gini koeffitsiyenti (daromadlar tengsizligi) orqali baholanadi.

So'nggi yillarda Respublikamizda kambag'allik darajasi ko'rsatkichi sezilarli tarzda pasayganligini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval.

<sup>1</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



2010 - 2025-yillar kesimida Respublikada Kambag'allik darajasi, aholi umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlarning ulushi, bandlik darajasi hamda aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi to'g'risida ma'lumot<sup>2</sup>

| Yillar | Kambag'allik darajasi % da | Aholi umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlarning ulushi % da | Bandlik darajasi % da | Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi (ming so'm) |
|--------|----------------------------|---|-----------------------|--|
| 2010   | 17,7                       | 19,6  | 66,9                  | 2038,7   |
| 2011   | 16,0                       | 19,3  | 66,2                  | 2729,9   |
| 2012   | 15,0                       | 21,1  | 66,6                  | 3267,8   |
| 2013   | 14,1                       | 21,7  | 67,1                  | 3902,7   |
| 2014   | 13,3                       | 19,6  | 67,7                  | 4472,0   |
| 2015   | 12,8                       | 15,8  | 68,2                  | 5127,5   |
| 2016   | 12,3                       | 14,9  | 68,7                  | 5887,9   |
| 2017   | 11,9                       | 17,9  | 69,2                  | 7258,7   |
| 2018   | 11,4                       | 20,9  | 67,4                  | 8337,8   |
| 2019   | 11,0                       | 22,2  | 68,1                  | 10176,6  |
| 2020   | 11,5                       | 23,1  | 66,0                  | 11412,9  |
| 2021   | 17,0                       | 24,7  | 67,0                  | 14232,5  |
| 2022   | 14,1                       | 28,3  | 67,2                  | 16800,4  |
| 2023   | 11,0                       | 27,1  | 67,9                  | 19456,4  |
| 2024   | 8,9                        | 28,6  | 68,3                  | 23414,4  |
| 2025   | 5,8                        | 29,6  | 70,5                  | 27511,7  |

2010–2025-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar tahlili ijtimoiy himoya tizimi ko'rsatkichlari va kambag'allik darajasi o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi (1-jadval). Mazkur davr mobaynida kambag'allik darajasi 2010-yildagi 17,7 foizdan 2025-yilda 5,8 foizgacha kamaygan bo'lib, bu ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz berganini anglatadi.

Dinamik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi tahlil qilinayotgan davrda izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, ushbu ko'rsatkich 2010-yildagi 2038,7 ming so'mdan 2025-yilda 27511,7 ming so'mga yetgan. Daromadlarning bunday barqaror o'sishi kambag'allik darajasining pasayishida asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy transfertlar ulushi ham tahlil davrida sezilarli darajada oshganligini kuzatish mumkin. Agar 2010-yilda transfertlar ulushi 19,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 29,6 foizga yetgan. Bu esa davlat tomonidan ijtimoiy himoya tizimi doirasida qo'llanilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengayib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, transfertlar ulushining oshishi kambag'allik darajasining pasayishi bilan teskari yo'nalishda harakat qilganligi ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi.

Bandlik darajasi esa nisbatan barqaror dinamikani namoyon etgan bo'lib, 2010-yildagi 66,9 foizdan 2025-yilda 70,5 foizgacha oshgan. Bandlik darajasining ortishi aholi daromadlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, kambag'allikni kamaytirishda muhim omil sifatida xizmat qilgan. Taqqoslash tahlili asosida tadqiqot davri uch bosqichga ajratilib o'rganildi. 2010–2016-yillarda kambag'allik darajasi bosqichma-bosqich kamayib, daromadlar va bandlik darajasining asta-sekin o'sishi bilan tavsiflanadi (2-jadval).

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



### 2-jadval. 2010–2016-yillarda kambag'allik darajasi va asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi<sup>3</sup>

| Yillar                                 | 2010   | 2016   | O'zgarishi |
|--|--------|--------|------------|
| <b>Kambag'allik darajasi (%)</b>       | 17,7   | 12,3   | -5.4       |
| <b>Aholi real daromadi (ming so'm)</b> | 2038.7 | 5887.9 | +3849.2    |
| <b>Bandlik (%)</b>                     | 66.9   | 68.7   | +1.8       |
| <b>Transfertlar (%)</b>                | 19,6   | 14,9   | -4.7       |

2017–2020-yillarda mazkur tendensiya davom etgan bo'lsa-da, 2020-yilda kambag'allik darajasining biroz oshishi kuzatilgan, bu esa tashqi iqtisodiy omillar, jumladan, pandemiya davri ta'siri bilan izohlanadi (3-jadval).

### 3-jadval. 2017–2020-yillarda kambag'allik darajasi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishi<sup>4</sup>

| Yillar                                 | 2017   | 2020    | O'zgarishi |
|--|--------|---------|------------|
| <b>Kambag'allik darajasi (%)</b>       | 11,90  | 11,50   | -0.4       |
| <b>Aholi real daromadi (ming so'm)</b> | 7258.7 | 11412.9 | +4154.2    |
| <b>Bandlik (%)</b>                     | 69.2   | 66.0    | -3.2       |
| <b>Transfertlar (%)</b>                | 17,90  | 23,10   | +5.2       |

2021–2025-yillarda esa ko'rsatkichlar dinamikasida muayyan o'zgarishlar kuzatiladi. Xususan, 2021-yilda kambag'allik darajasi keskin oshib, 17,0 foizni tashkil etgan, biroq keyingi yillarda izchil pasayib, 2025-yilda eng past darajaga yetgan. Ushbu holat ijtimoiy siyosat choralari kuchaytirilishi va iqtisodiy tiklanish jarayonlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin (4-jadval).

### 4-jadval. 2021–2025-yillarda kambag'allik darajasi va asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi<sup>5</sup>

| Yillar                                 | 2021    | 2025    | O'zgarishi |
|--|---------|---------|------------|
| <b>Kambag'allik darajasi (%)</b>       | 17.0    | 5,8     | -11,2      |
| <b>Aholi real daromadi (ming so'm)</b> | 14232.5 | 27511.7 | +13279,2   |
| <b>Bandlik (%)</b>                     | 67.0    | 70.5    | +3.5       |
| <b>Transfertlar (%)</b>                | 24,7    | 29,6    | +4.9       |

Korrelyatsion tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kambag'allik darajasi bilan aholi daromadlari o'rtasida kuchli teskari bog'liqlik mavjud. Shuningdek, ijtimoiy transfertlar ulushi bilan kambag'allik darajasi o'rtasida ham manfiy bog'liqlik kuzatiladi. Bandlik darajasi bilan kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlik esa nisbatan zaifroq, ammo ijobiy yo'nalishda ekanligi aniqlangan.

Strukturaviy tahlil natijalari aholi umumiy daromadlari tarkibida ijtimoiy transfertlar ulushining sezilarli darajada o'zgarib borayotganini ko'rsatdi. Xususan, 2010–2016-yillarda transfertlar ulushi 19,6 foizdan 14,9 foizgacha kamaygan bo'lib, bu davrda aholi daromadlari asosan bozor omillari hisobiga shakllanganini anglatadi.

Biroq keyingi yillarda ushbu tendensiya o'zgargan. 2017–2020-yillarda transfertlar ulushi 14,9 foizdan 23,1 foizgacha oshgan bo'lsa, 2021–2025-yillarda bu ko'rsatkich 29,6 foizgacha yetgan. Umuman olganda, 2016–2025-yillar oralig'ida transfertlar ulushi qariyb 14,7 foiz punktga oshgan.

Mazkur o'zgarishlar ijtimoiy himoya tizimining aholi daromadlarini shakllantirishdagi roli ortib borayotganini ko'rsatadi. Ya'ni, ijtimoiy transfertlar nafaqat qo'shimcha yordam vositasi, balki aholi daromadlarining muhim

3 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

4 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

5 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



tarkibiy qismiga aylangan. Bu esa davlatning ijtimoiy siyosati kambag'allikni kamaytirishda faol mexanizm sifatida ishlayotganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, olingan natijalar ijtimoiy himoya tizimi elementlari va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'zaro kompleks tarzda kambag'allik darajasiga ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, aholi daromadlarining o'sishi asosiy omil sifatida namoyon bo'lsa, ijtimoiy transfertlar va bandlik darajasi uni qo'llab-quvvatlovchi muhim omillar sifatida xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini baholashda statistik ma'lumotlarga asoslangan kompleks yondashuvning muhimligini ko'rsatdi. 2010–2025-yillar oralig'idagi empirik tahlil natijalari O'zbekistonda kambag'allik darajasining sezilarli darajada pasaygani va bu jarayon aholi daromadlarining izchil o'sishi, ijtimoiy transfertlar ulushining ortishi hamda bandlik darajasidagi nisbiy yaxshilanishlar bilan uzviy bog'liqligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholi jon boshiga real daromadlarning o'sishi kambag'allikni kamaytirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ijtimoiy transfertlarning aholi daromadlari tarkibidagi ulushining ortishi ijtimoiy himoya tizimining ahamiyati tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Bandlik darajasi esa nisbatan barqaror bo'lsa-da, uning o'zgarishi ham daromadlar shakllanishi orqali kambag'allik darajasiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil natijalari ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi birgina omil bilan emas, balki bir nechta ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro uyg'un ta'siri orqali shakllanishini ko'rsatdi. Bu esa ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda kompleks yondashuv zarurligini anglatadi. Xususan, daromadlarni oshirishga qaratilgan iqtisodiy choralar, ijtimoiy transfertlarni manzilli va samarali taqsimlash hamda sifatli bandlikni rivojlantirish ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo'yicha aniq yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi. Jumladan, ijtimoiy transfertlar tizimini yanada optimallashtirish, aholi daromadlarini barqaror oshirish mexanizmlarini kengaytirish hamda mehnat bozorida sifatli ish o'rinlarini yaratish ustuvor vazifalar sifatida qaralishi lozim.

Shu bilan birga, tadqiqot ayrim cheklovlariga ega bo'lib, kelgusida mazkur yo'nalishda yanada chuqurroq izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, hududlar kesimidagi tahlillarni amalga oshirish, mikro darajadagi ma'lumotlardan foydalanish hamda ijtimoiy himoya dasturlarining bevosita ta'sirini baholash orqali yanada aniqroq ilmiy xulosalarga erishish mumkin.

Umuman olganda, olingan natijalar ijtimoiy himoya tizimi kambag'allikni kamaytirishda samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi hamda uni statistik tahlil asosida kompleks baholash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. [https://ida.worldbank.org/en/topics/results/social-protection?utm\\_source](https://ida.worldbank.org/en/topics/results/social-protection?utm_source)
2. Ravallion, M. (2016). *The Economics of Poverty: History, Measurement, and Policy*. Oxford University Press.
3. Bourguignon, F. (2015). *The Globalization of Inequality*. Princeton University Press.
4. Wooldridge, J. M. (2016). *Introductory Econometrics: A Modern Approach*. Cengage Learning.
5. <https://hdr.undp.org/content/human-development-report-2020>
6. <https://data.worldbank.org/country/uzbekistan>
7. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>
8. OECD — *Digital Education Outlook 2021 and The potential impact of AI on equity and inclusion in education (2024)*. OECD
9. UNESCO — *Artificial intelligence in education resources and gender/digital inclusion materials*.
10. [stat.uz](http://stat.uz) — O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
11. [imv.uz](http://imv.uz) — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.
12. [prezident.uz](http://prezident.uz) — O'zbekiston Respublikasi Prezidentning rasmiy sayti.
13. [undp.org](http://undp.org) — BMTning rasmiy web sayti.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 4 (2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>